

## MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARGA MUSIQA MADANIYATI RIVOJIGA HISSA QO'SHGAN KOMPOZITORLAR IJODINI O'RGATISH METODIKASI

**Mamadaliyeva Movludaxon Toirxon qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Musiqqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

**Karimova Dildora Anvarovna**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Musiqiy ta'lim kafedrası dotsenti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirishda jahon va o'zbek kompozitorlari ijodini o'rgatishning pedagogik imkoniyatlari tadqiq etiladi. Maqolada kompozitorlar hayoti va faoliyatini yoritishda interfaol metodlar, multimedia texnologiyalari hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, o'quvchilarda musiqiy merosga nisbatan hurmat va qiziqishni uyg'otishning psixologik hamda uslubiy jihatlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *musiqa madaniyati, kompozitorlik ijodi, pedagogik texnologiyalar, musiqiy meros, estetik tarbiya, innovatsion metodika, o'quvchi dunyoqarashi, musiqiy idrok, dars samaradorligi, madaniy taraqqiyot, klassik musiqa, zamonaviy ta'lim, badiiy tahlil, kompozitsiya asoslari, ma'naviy rivojlanish, interfaol usullar, musiqiy did.*

**Аннотация:** *В данной статье исследуются педагогические возможности изучения творчества мировых и узбекских композиторов в формировании эстетического мировоззрения учащихся на уроках музыкальной культуры в общеобразовательных школах. Обосновывается эффективность использования интерактивных методов, мультимедийных технологий и методов сравнительного анализа при освещении жизни и деятельности композиторов. Также анализируются психологические и методические аспекты пробуждения у учащихся уважения и интереса к музыкальному наследию.*

**Ключевые слова:** *музыкальная культура, творчество композиторов, педагогические технологии, музыкальное наследие, эстетическое воспитание, инновационная методика, мировоззрение ученика, музыкальное восприятие, эффективность урока, культурное развитие, классическая музыка, современное образование, художественный анализ, основы композиции, духовное развитие, интерактивные методы, музыкальный вкус.*

**Annotation:** *This article explores the pedagogical possibilities of teaching the works of world and Uzbek composers in shaping the aesthetic worldview of students during music culture lessons in secondary schools. The effectiveness of using interactive methods, multimedia technologies, and comparative analysis techniques in highlighting the lives and*

*activities of composers is substantiated. Furthermore, the psychological and methodological aspects of fostering students' respect and interest in musical heritage are analyzed.*

**Keywords:** *music culture, composers' creativity, pedagogical technologies, musical heritage, aesthetic education, innovative methodology, student's worldview, musical perception, lesson effectiveness, cultural development, classical music, modern education, artistic analysis, composition basics, spiritual development, interactive methods, musical taste.*

## **KIRISH**

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, ularda yuksak badiiy did va milliy g'ururni tarbiyalashda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa madaniyati darslari shunchaki qo'shiq o'rganish mashg'uloti emas, balki o'quvchi qalbida go'zallikka muhabbat, insoniy fazilatlarni uyg'otuvchi kuchli tarbiya vositasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Agar bola maktab davridayoq san'atni tushunsa, musiqa tinglab, asarlarning mohiyatini anglasa, uning dunyoqarashi keng, ma'naviyati boy bo'ladi. Madaniyat va san'atga e'tibor berilgan joyda hech qachon loqaydlik va ma'naviy qashshoqlik bo'lmaydi". Ushbu ustuvor vazifadan kelib chiqqan holda, musiqa darslarida dunyo va o'zbek musiqa madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan kompozitorlar ijodini o'rgatish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har bir buyuk kompozitorning asari bu muayyan davrning ruhiyati, xalqning orzu-intilishlari va insoniy kechinmalarining badiiy in'ikosidir. G'arb klassik musiqasining ustunlari bo'lmish I.S. Bax, V.A. Motsart va L. van Betxoven kabi daho ijodkorlarning asarlari o'quvchilarda mantiqiy tafakkur va emotsional intellektni rivojlantirsa, milliy kompozitorlik maktabimiz asoschilari To'liqin Qurbonov, Mutal Burhonov, Sulaymon Yudakov va Manas Leviyev ijodi ularni milliy qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatadi. Mashhur pedagog va musiqashunos Dmitriy Kabalevskiy o'zining musiqiy ta'lim konsepsiyasida: "Musiqa darsining asosiy maqsadi bolani musiqachi qilish emas, balki uni inson qilib tarbiyalashdir", — deb yozgan edi. Darhaqiqat, dars jarayonida kompozitorlarning hayot yo'li va ular yaratgan simfoniya, opera yoki kamer asarlarni tahlil qilish orqali o'quvchi shaxsida estetik madaniyat shakllanadi. Ushbu maqolada kompozitorlar ijodini o'qitishda an'anaviy usullardan voz kechib, zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ko'rib chiqamiz. Bu yondashuv o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning musiqiy merosimizga bo'lgan hurmatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## **METODOLOGIYA**

Musiqa madaniyati darslarida kompozitorlar hayoti va ijodini o'rgatish metodologiyasi nafaqat biografik ma'lumotlarni uzatish, balki o'quvchining ichki dunyosini badiiy-estetik jihatdan boyitishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun biz tizimli-funksional, germenevtik va multimediyaviy yondashuvlarning sintezidan foydalanishni taklif etamiz. Kompozitor ijodini uning yashagan davri, ijtimoiy-

siyosiy muhiti va madaniy atmosferasidan ayro holda o'rganib bo'lmaydi. Metodologik jihatdan, o'qituvchi avvalo o'quvchilarda "davr ruhi" haqida tasavvur uyg'otishi lozim. Masalan, L. van Betxoven ijodini o'rganishda frantsuz inqilobi g'oyalari, ozodlik va kurash motivlarini tushuntirish metodikasi qo'llaniladi. Bu yerda qiyosiy-tarixiy metod ishga tushadi: o'quvchi kompozitorning shaxsiy fojiasi (kar bo'lib qolishi) va uning asarlaridagi yengilmas iroda o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. O'zbek kompozitorlari, xususan Mutal Burhonov ijodini o'rganishda esa, milliy an'anaviy maqom yo'llarining polifonik musiqaga sintezi pedagogik tahlil ob'ektiga aylanadi. Metodologiyaning markazida musiqiy idrokni shakllantirish yotadi. O'quvchilarga asarni shunchaki tinglatish kifoya emas; ularga musiqiy til (melodiya, ritm, garmoniya, dinamika) orqali kompozitor nima demoqchi bo'lganini "o'qish" o'rgatiladi. Musiqani tinglash jarayonida o'quvchilarda ranglar, she'riy satrlar yoki tasviriy san'at asarlari bilan bog'liq assotsiatsiyalar hosil qilish. Bu metod ayniqsa Klod Debyussi kabi impressionist kompozitorlar ijodini tushunishda juda qo'l keladi. Zamonaviy metodika vizuallashtirishni talab etadi. Kompozitorlar ijodini o'rgatishda quyidagi texnik vositalar metodologik zanjirning uzviy qismi hisoblanadi: Virtual ekskursiyalar: Kompozitorlarning uy-muzeylariga (masalan, Vena shahridagi Motsart uyi yoki Toshkentdagi Yunus Rajabiy muzeyi) virtual sayohatlar uyushtirish. Musiqiy-didaktik o'yinlar: "Kompozitorni top", "Asarni davom ettir" yoki "Janrlar labirinti" kabi o'yinlar orqali olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash. O'quvchilarga kompozitor hayotidagi burilish nuqtasi haqida ma'lumot berib, "Agar siz kompozitor o'rnida bo'lsangiz, ushbu asarni qanday yakunlagan bo'lardingiz?" degan muammoli savol tashlash. Metodologiyaning eng muhim ustuni "Milliy merosdan jahon tamadduniga" tamoyilidir. O'quvchilarga Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" operasini o'rgatishda uning komik opera janrini o'zbek milliy mentalitetiga qanday moslashtirgani ilmiy-pedagogik tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o'quvchi jahon klassikasi (masalan, Rossini yoki Verdidagi komizm) bilan milliy kompozitorlik maktabimiz yutuqlarini solishtirish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu yondashuv o'quvchida nafaqat bilim, balki madaniyatlararo muloqot ko'nikmasini ham shakllanti radi. Metodologik tahlilimizning yakuniy bosqichi o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatidir. Bu "Kompozitor portreti" mavzusida kichik tadqiqot ishlari, asarlarga chizilgan illyustratsiyalar yoki kichik musiqiy chiqishlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi bu yerda fasilitator (yo'naltiruvchi) rolini o'ynaydi, o'quvchi esa passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Musiq madaniyati darslarida kompozitorlar ijodini o'rgatish masalasi pedagogika va musiqashunoslik fanlarining chorrahasidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu yo'nalishdagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, metodikaning takomillashuvi bevosita ta'limning texnologik va psixologik jihatlari bilan bog'liq. O'zbekiston musiqiy pedagogikasida kompozitorlar ijodini o'qitish metodikasini modernizatsiya qilishda olimlarning hissasi beqiyos. "Musiq o'qitish metodikasi" hamda musiqiy ta'limga oid o'quv qo'llanmalar ushbu maqolaning nazariy poydevorini tashkil etadi. Bu yondashuvlar dars

jarayonida o'quvchini passiv tinglovchidan faol muloqot ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek musiqiy pedagogikasi darg'alari O. Fayziyev, N. Sharafutdinova va I. Akbarovlar tomonidan yaratilgan darsliklarda kompozitorlar biografiyasini o'qitishda xronologik tartib va janriy tahlil ustuvorlik qiladi. Biroq zamonaviy bosqichda olimlarimiz taklif etgan integrativ yondashuv musiqani adabiyot, tarix va tasviriy san'at bilan bog'lab o'rgatish metodikasi dars samaradorligini yangi bosqichga olib chiqdi. Jahon miqyosida musiqiy ta'lim metodologiyasi bo'yicha D.B. Kabalevskiyning "Musiqiy tarbiya tizimi" hamon o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Kabalevskiy kompozitor ijodini o'rgatishda "uch kit" (qo'shiq, raqs, marsh) tamoyili orqali murakkab simfonik asarlarni oddiy janrlar bilan bog'lash metodikasini ishlab chiqqan. G'arb pedagogikasida esa Zoltan Kodai va Karl Orf kabi olimlarning qarashlari diqqatga sazovordir. Ularning metodikasida kompozitorlik mahoratini tushunish uchun o'quvchining o'zi ham kichik ijodiy elementlarni (ritmik va melodik improvizatsiya) bajarishi shart deb hisoblanadi. Bu esa o'quvchiga kompozitor mehnatining murakkabligini anglashga yordam beradi. Zamonaviy rus pedagogi L.V. Shkolyar "Musika san'at sifatida" konsepsiyasida kompozitor ijodini o'rgatishni "ma'naviy muloqot" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, Bax yoki Betxoven bilan "muloqotga kirishish" uchun o'quvchi musiqiy asarni o'z shaxsiy tajribasi orqali qayta kashf etishi kerak. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, agar an'anaviy metodikada asosiy e'tibor faktologik ma'lumotlarga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yo'nalishda esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va badiiy-estetik tahlil ustuvorlik qilmoqda.

#### **NATIJAR VA MUHOKAMA**

Musika darslarida kompozitorlar ijodini o'rgatish metodikasini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar va pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy "biografik ma'lumot berish" usuli bugungi kun o'quvchisining ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Olingan natijalar tahlili shuni tasdiqladiki, o'quvchilarning musiqiy merosga bo'lgan qiziqishini oshirishda nazariy bilimlar bilan birga emotsional-shaxsiy yondashuvning integratsiyalashuvi kutilgan samarani beradi. Bu natija shuni anglatadiki, kompozitor shaxsini "tarixiy siymo" sifatida emas, balki o'z his-tuyg'ulari, iztiroblari va g'alabalari bilan "tirik obraz" sifatida taqdim etish o'smir yoshidagi o'quvchilarning estetik dunyoqarashiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Muhokama jarayonida aniqlangan eng muhim jihatlardan biri multimedia texnologiyalarining musiqiy obraz bilan uyg'unligidir. Natijalar shuni ko'rsatdiki, I.S. Bax polifoniyasini o'rganishda vizual grafik sxemalardan foydalanish yoki Mutal Burhonov asarlarini tahlil qilishda o'zbek milliy cholg'u asboblarning tembr xususiyatlarini video-roliklar orqali ko'rsatish, o'quvchining xotirasida ma'lumotlarning uzoq muddat saqlanib qolishini ta'minlaydi. Musika o'qituvchisi nafaqat pedagog, balki mohir san'atshunos va psixologham bo'lishi lozim. Zero, kompozitor ijodini o'rganish orqali o'quvchida shakllanadigan "musiqiy did" bu shunchaki tinglash ko'nikmasi emas, balki yuksak ma'naviyatning poydevoridir. Milliy kompozitorlik maktabimiz asoschilari ijodini jahon klassikasi bilan qiyosiy o'rganish metodikasi o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini uyg'otishning eng qisqa yo'lidir. Masalan, Sulaymon Yudakov musiqasidagi sharqona kolorif

va g'arb simfonizmining sintezi o'quvchilarda o'zbek madaniyatining dunyo tamaddunidagi o'rni haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Bu esa darsning tarbiyaviy maqsadiga to'laqonli erishilganidan dalolat beradi. Shuningdek, metodik tahlillar shuni ko'rsatadiki, darslarda "muammoli ta'lim" usulidan foydalanish, ya'ni kompozitorning muayyan asarini yaratishdagi ijodiy izlanishlarini o'quvchilar bilan birgalikda "qayta yashab o'tish", ularda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, musiqa darslarida o'quvchilarga musiqa madaniyati rivojiga hissa qo'shgan kompozitorlar ijodini o'rgatish metodikasini tadqiq etish natijasida shunday xulosaga kelindiki, ushbu jarayon ta'limning ham ma'rifiy, ham tarbiyaviy maqsadlarini birlashtiruvchi strategik yo'nalish hisoblanadi. Kompozitorlar ijodini o'rganish shunchaki tarixiy faktlarni o'zlashtirish emas, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, ularda milliy va umumbashariy qadriyatlarga nisbatan hurmat uyg'otishning samarali mexanizmidir. Taklif etilgan yangi metodik yondashuvlar o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish bilan birga, ularning badiiy didini yuksaltiradi. Kompozitorning ijodiy laboratoriyasi bilan tanishish orqali bolalar mehnatsevarlik, matonat va go'zallikni qadrlash kabi insoniy fazilatlarni o'zlashtiradilar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, musiqa ta'limidagi bunday sifat o'zgarishlari O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida uchinchi renessans poydevorini qo'yishga qodir, ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitorlar ijodini o'rgatish metodikasini doimiy ravishda takomillashtirib borish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish va bu borada olimlarning ilmiy qarashlaridan samarali foydalanish musiqa fani samaradorligini kafolatlovchi asosiy omildir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-242-son. – Toshkent, 2022-yil 2-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa fani o'qitilishini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2020-yil.
3. Karimova D.A. Musiqa o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2021. – 180 b.
4. Karimova D.A. Musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirish (metodik tavsiyalar). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – 124 b.
5. Ibrohimov O.A. O'zbek xalq musiqiy ijodi (metodik tavsiyalar). – Toshkent: "Barkamol fayz media", 2018.
6. Panjiyev Q.B. Musiqa o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020.

7. Tursunova G. Kompozitorlik ijodi va zamonaviy musiqa talqini. – Toshkent: “Musiq”, 2016.
8. Bennett, R. Investigating Musical Styles: From Classical to Contemporary. – London: Cambridge University Press, 2019.
9. Elliott, D. J., & Silverman, M. Music Matters: A Philosophy of Music Education. 2nd Edition. – New York: Oxford University Press, 2015.
10. Guseva E.S. Metodika prepodavaniya muziki v sovremennoy shkole (Metodika o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari). – Moskva: Yurayt, 2021.
11. Hargreaves, D. J. The Musical Mind: The Cognitive Psychology of Musical Listening. – Oxford: Oxford University Press, 2016.